ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№5(4)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.......10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi

2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori.......14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna

Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.......18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi

Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni.......23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li

Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari.......28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.......34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi

Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.......39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna

Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi.......47
A. Safarov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.......57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li

7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi.......60
Xolmurodova Sarvinoz

Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.......64
G'afforova Dildora Ergashevna

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.......69
Yusupova Umida Zayniddin qizi

Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.......74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi

Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil.......78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi

Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.......81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrinxon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.......86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi

Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.......91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi

Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi.......94
Z. N. Urunova, M. Jaborova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash.......97
Sattorova Shirinoy San'atovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv.......100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar.......104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna

O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning ahamiyati.......107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ..................... 111
**Akaboyeva Malika Raxmatovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi ..................... 114
**Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ..................... 117
**Xoliyeva Sevara Rustam qizi**

Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish ..................... 122
**Narmatova Fotima Dilshod qizi**

Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements ..................... 127
**Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi .... 129
**Meyliyeva Sevinch Bozor qizi**

Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari ..................... 132
**Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi**

Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish ........... 136
**Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi**

Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi ..................... 139
**Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich**

Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя ..................... 144
**Дусткобилов Акмал Бобомуродович**

Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor ..................... 149
**Дусткобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович**

Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar ..................... 154
**Delov To'lqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi**

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri ..................... 160
**Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi**

Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli ..................... 165
**Amonov Mirjon Namozovich**

O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni ..................... 170
**Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi**

Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari ..................... 174
**Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ..................... 178
**Jumayeva Guzal Xayriddin qizi**

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish ..................... 183
**Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich**

Globallashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari ..................... 187
**Axralova Marg'uba Akmalxanovna**

Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari ..................... 191
**Jumanova Xafiza Xoliqulovna**

Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..................... 196
**Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna**

Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti ..................... 202
**Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ................. 205
A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ............ 208
Majitov Turg'unali Anvar o'g'li

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari ........................................ 214
Ismoilova Muattar Ilyosovna

Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari ......................... 219
Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li

Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish ...................... 222
Murodova Sayyora Qanoatovna

Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ................................. 226
Norboyeva Dilafruz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ................................. 230
Abdunabiyeva Kamola Mansurovna

Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ................................. 236
Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi

Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ......................................... 240
Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish................................. 245
Raximov Zokir Toshtemirovich

Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ..... 249
Temirov Shoirbek Raimjonovich

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish.................................... 253
Kimsanova Rahnamo Solijonovna

Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish................................. 257
Muratov Muzaffar Shermamatovich

Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ................................. 261
Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li

Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari ........................ 264
Oblayeva Lobar Erdonovna

STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ............................... 268
Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi

Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari ................................. 272
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna

Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi................................. 276
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi

Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools........ 279
S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova

Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration ................................. 282
Shahlo Obidova

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish ................................. 286
Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi

Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari .................................. 290
Turakulova Feruza Mamadoli qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ....................294
Xoliyeva Sevara Rustam qizi

Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi....................298
Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish....................302
Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li

Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) ....................305
Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи

Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие ....................308
Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна

Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе....................311
Нехочина Лола Шахобиддиновна

Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания....................314
Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова

# TALABALARNING TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Turakulova Feruza Mamadoli qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
"boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

**ORCID: 0009-0001-1086-1061**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida darsdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, ijodiy to'garaklarning talabalar shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda talabalarning intellektual va kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarishda to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishning o'ziga xos prinsiplari hamda metodik yondashuvlari yoritilgan. Maqolada talabalarda divergent fikrlash, muammoli vaziyatlarda original yechimlar topish va mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llari (loyiha usuli, keys-stadi, kreativ o'yinlar) taklif etilgan. Shuningdek, to'garak rahbari va talaba o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarining ijodiy muhit yaratishdagi roli ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishda ijodiy to'garaklar modelini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy qobiliyat, to'garak faoliyati, kreativlik, divergent fikrlash, oliy ta'lim, metodika, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion yondashuv, mustaqil faoliyat.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the importance of extracurricular activities in the higher education system, specifically creative clubs, in shaping students' personalities. The study highlights the specific principles and methodological approaches to organizing club activities aimed at developing students' intellectual and creative potential. The article proposes effective ways to develop students' divergent thinking, the ability to find original solutions in problematic situations, and independent creative activity skills (project method, case study, creative games). The role of subject-subject relations between the club leader and the student in creating a creative environment is also emphasized. The research findings contribute to improving the model of creative clubs in enhancing the professional competence of future specialists.

**Key words:** creative abilities, club activities, creativity, divergent thinking, higher education, methodology, pedagogical conditions, innovative approach, independent activity.

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения проанализировано значение внеаудиторных занятий в системе высшего образования, в частности, творческих кружков, в формировании личности студентов. В исследовании освещены специфические принципы и методические подходы к организации кружковых занятий в целях реализации интеллектуального и творческого потенциала студентов. В статье предлагаются эффективные способы формирования у студентов навыков дивергентного мышления, поиска оригинальных решений в проблемных ситуациях и самостоятельной творческой деятельности (метод проектов, кейс-стади, креативные игры). Также раскрыта роль субъект-субъектных отношений между руководителем кружка и студентом в создании творческой среды. Результаты исследования способствуют совершенствованию модели творческих кружков в повышении профессионального мастерства будущих специалистов.

**Ключевые слова:** творческие способности, кружковая деятельность, креативность, дивергентное мышление, высшее образование, методика, педагогические условия, инновационный подход, самостоятельная деятельность.

## KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda xalqimizning milliy hamda madaniy an'analari va qadriyatlariga daxldor tushunchalarni kelajak avlodga yetkazish, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish" ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada talabalar bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga o'rgatish, jumladan, ularning to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Talabalarning toʻgaraklar orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – bu ularning mustaqil fikrlashi, innovatsion gʻoyalarini yuzaga chiqarishi va kasbiy koʻnikmalarini shakllantirishning samarali yoʻlidir. Toʻgaraklar oʻquv mashgʻulotlaridan tashqari faoliyat shakli sifatida yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning isteʼdodini namoyon etish va maʼnaviy-ruhiy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Toʻgaraklardagi ijodiy faoliyat taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonning shaxsga yoʻnaltirilgan, yaratuvchanlikka asoslangan va ijodiy muhitda shakllanadigan tizimidir. Toʻgaraklar oʻquvchilarning ehtiyojlariga koʻra ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan [1].

Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini yuzaga keltirish, mavjud qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni amaliyotda qoʻllash va samaradorligini oshirish taʼlim-tarbiya sifatining takomillashishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Buning uchun pedagogda ham ijodkorlik qobiliyati yuqori darajada boʻlishi kerakligini inkor qilib boʻlmaydi. Ijodiy tafakkur, yaratuvchanlik va intellektual salohiyatga ega boʻlgan pedagog dars jarayonida muammoli vaziyatlarni toʻgʻri tanlay olishi, talabalar uchun muayyan holat yuzasidan mantiqiy mulohaza yuritish imkoniyatini yaratib bera olishi kabi sifatlarni oʻzida mujassamlashtirgan boʻlishi lozim. Shaxsning ijodkorlik sohasida erishadigan muvaffaqiyatlari darajasini belgilovchi asosiy omil uning egallayotgan yoki shugʻullanayotgan ijodiy faoliyat turini toʻgʻri tanlagani hamda shaxsning oʻzi ijodiy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan belgilanadi. Demak, talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirish boʻyicha yangicha qarashlar va metodikalarni ishlab chiqish ularning taʼlimdan amaliy faoliyatga oʻtish davridagi dolzarb muammolarni hal etishda muhim axamiyat kasb etadi [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni toʻgaraklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish texnologiyalari masalasi ilmiy-metodik asoslarini belgilash, uning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bagʻishlangan dastlabki izlanishlar mahsulidir. Globallashuv sharoitida talabalarni gʻoyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyalari, badiiy toʻgaraklar hamda talabalarni toʻgaraklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish texnologiyalariga oid masalalar, shuningdek, taʼlim mazmunini takomillashtirish, talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasini boyitish, auditoriyadan tashqari mashgʻulotlar jarayonida talabalar maʼnaviyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish, taʼlim samaradorligini oshirish shartlari hamda samarali metod va vositalar Sh. N. Mustafayev, F. Z. Xusanova, R. R. Islamova, J. A. Qarshiyev, N. Jamilova, Sh. Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

F. Xusanovaning ilmiy ishida talabalarni toʻgaraklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning funksional modeli talabalarda badiiy-ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishning motivatsion, kognitiv, mazmuniy, faoliyatli, jarayonli, refleksiv va texnologik komponentlarini ilmiy dalillarga asoslangan holda oʻrganish imkonini beruvchi individuallashtirish va differensiallashtirish, oʻz-oʻzini faollashtirish hamda shaxsiy portfoliosini boyitishga yoʻnaltirilgan faoliyat orqali takomillashtirilgan [3].

R. Islamova talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini konstruktiv fikrlash jarayonini muammoli loyihalash, keys-stadi modellarini raqamli muhitga transformatsiyalash hamda ijodiy fikrlashning nostandart modellarini estetik va funksional uygʻunlik asosida regulyativ baholash orqali aniqlashtirgan.

Talabalar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodning bir necha koʻrinishlari mavjud boʻlib, ularning har biri alohida tahlil qilinadi. Avvalo, "ijodkorlik" soʻziga taʼrif berish lozim. Ijodkorlik – bu shaxsning yangi, original gʻoyalar yaratish, noodatiy vaziyatlarda yechim topish, mavjud bilim va tajribani yangicha kombinatsiya qilish qobiliyati va sifatidir. Uning asosiy belgilari – yangilik yaratish, original fikrlash, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, estetik did va fantaziyadir.

Yuqorida qayd etilganidek, ijodning turli koʻrinishlari turlicha tahlil qilinadi, yaʼni: ilmiy ijod – yangi nazariyalar, qonuniyatlar va metodlarni ishlab chiqish bilan bogʻliq boʻlib, fundamental va amaliy ilmiy izlanishlarni oʻz ichiga oladi; texnik ijod – yangi mexanizmlar va muhandislik ishlanmalarini yaratish faoliyati boʻlib, innovatsiyalar hamda muhandislik sohasida katta ahamiyatga ega;

- badiiy ijod – insonning hissiyot va dunyoqarashini ifodalashga qaratilgan faoliyat boʻlib, adabiyot, musiqa, tasviriy sanʼat, haykaltaroshlik, teatr va kino sanʼatini oʻz ichiga oladi;
- pedagogik ijod – taʼlim jarayonida yangi metod va yondashuvlarni ishlab chiqish, oʻqitish samaradorligini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonidir;
- ijtimoiy va siyosiy ijod – jamiyat taraqqiyotini taʼminlovchi yangi gʻoyalar, falsafiy qarashlar, qonunchilik va siyosiy boshqaruv usullarini yaratish faoliyatidir;
- biznes va tadbirkorlik ijodi – bozor talablariga mos ravishda yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarini ishlab chiqish jarayonidir [4].

Talabalarning ijodkorlik faoliyati mexanizmlarida quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ijod – mavjud bilimlarning kombinatsiyasi va oʻzgarishi;
- tasavvur – xayolda yangi hissiy yoki aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyati;
- fantaziya – talab qilinmaydigan yoki yetarli boʻlmagan holatlarda tasavvuriy natijalarni yaratishda namoyon boʻladigan ijodiy faoliyat shakli;
- sezgirlik esa insonning chuqur anglash qobiliyatidir, degan xulosaga kelinadi.




1-rasm: **Talabalar ijodiy faoliyatining asosiy mexanizmlari**

Toʻgarak – bu talabalarning muloqoti va birgalikdagi faoliyati uchun muhit, oʻquv muammolarini hal qilishga hamda muayyan faoliyatda bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradigan qiziqishlar uyushmasidir. Toʻgarakdagi mashgʻulotlar talabalarning turli xil qiziqishlarini qondirishga imkon beradi va ularda oʻz tanlovining toʻgʻriligi haqida xulosa chiqarish koʻnikmasini shakllantiradi. Bugungi kunda toʻgarak oʻquv dasturini amalga oshirishning dastlabki bosqichi sifatida mavjud boʻlishi mumkin. Bu yerda talabalar oʻz imkoniyatlarini sinab koʻrishlari, faoliyat yoʻnalishini tanlashning toʻgʻriligini tekshirishlari mumkin.

Talabalarga qoʻshimcha taʼlim berish sharoitida darsdan keyingi ishlar ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, ularni tegishli dasturlardan tashqari bilim va koʻnikmalarni egallashga undaydi. Mashgʻulotlar talabalarni nafaqat faollikka undaydi, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini roʻyobga chiqarishga ham yordam beradi. Ular ijodiy faoliyat jarayonida oʻz gʻoyalarini amalga oshirishga oʻrganadilar. Natijada, har bir badiiy ijodning oʻziga xosligi namoyon boʻladi [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Toʻgarak mashgʻulotlari talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni oʻrgatadi, balki amaliy koʻnikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: Guruh boʻyicha ishlar: Oʻquvchilarni kichik guruhlarga boʻlib, ular birgalikda muammolarni hal qilishlari uchun topshiriqlar beriladi. Bu ularning jamoada ishlash qobiliyatini va fikr almashish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Debatlar va muhokamalar: Talabalarga oʻz fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, turli nuqtai nazarlarni tinglash va bahslashish orqali bilimlar chuqurlashtiriladi. Case study (holat tahlili): Real hayotdagi vaziyatlarga oid masalalarni muhokama qilish talabalarning amaliy bilimlarni egallashiga yordam beradi.

Talabalar ixtiro qilishda cheksiz imkoniyatlarga ega boʻlib, ular yangi gʻoyalarga katta qiziqish bilan yondashadilar. Ular ijodiy faoliyatdan zavqlanadilar, chunki tasavvurning mujassamlanish istagi ijodkorlikning haqiqiy asosi va harakatlantiruvchi tamoyili hisoblanadi. Toʻgaraklarning vazifasi talabalarning bilimini chuqurlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, boʻsh vaqtini mazmunli tashkil qilish hamda hordiq chiqarishini taʼminlashdan iborat [6].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida talabalar toʻgarak mashgʻulotlari orqali ularning kasbiy koʻnikmalari rivojlantirilganligini kuzatish mumkin. Biroq oliy taʼlim muassasalari oʻquv rejasidagi fanlar gorizontal tamoyil asosida ishlab chiqilgan boʻlib, ularning mazmunida talabalarni toʻgaraklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish masalalari toʻliq aks ettirilmagan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oliy taʼlim muassasalarida "Yosh pedagog" kabi turli fan toʻgaraklari faoliyat yuritayotgan boʻlsa-da, mashgʻulotlar jarayonida talabalarni toʻgaraklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish masalasi maxsus oʻrganilmagan. Natijada tajriba-sinov ishlarining asoslovchi bosqichi natijalarini

tahlil qilish va umumlashtirish asosida “Badiiy ijod”, “Mohir qo‘llar”, “Yosh ijodkor”, “Yosh pedagog” nomli to‘garak dasturlarini ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim hamda pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun auditoriyadan tashqari mashg‘ulot sifatida joriy etish, shuningdek, boshqa pedagogika yo‘nalishlarida ham mazkur to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [7].

Talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faollikka yo‘naltirish mazmuni quyidagilardan iborat: Ijodiy jarayon – bu yangi g‘oyalar, san’at asarlari, ilmiy kashfiyotlar yoki muammolarga nostandart yechimlar yaratishga qaratilgan murakkab intellektual va ruhiy faoliyatdir. U tafakkur, tasavvur va ilhom uyg‘unligida voqelikni yangidan kashf etishga xizmat qiladi.

Ijodiy salohiyat – bu insonning yangi g‘oyalarni kashf etish, nostandart muammolarga yechim topish va o‘zining ichki imkoniyatlarini ijodiy faoliyatda namoyon eta olish qobiliyatidir. U shaxsning tug‘ma iqtidori hamda ijtimoiy muhitda orttirgan bilim va ko‘nikmalari uyg‘unligidan iborat. Ijodiy fikrlash – bu muammolarga yangicha qarash, noodatiy yechimlar topish va mutlaqo yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. U mavjud bilim va tajribalarni yangi shaklda birlashtirishga asoslanadi. Ijodiy faollik – bu insonning borliqni, o‘zini va atrof-muhitni o‘zgartirishga, yangi moddiy yoki ma’naviy boyliklar yaratishga qaratilgan intilishi hamda amaliy harakatidir. Agar ijodiy fikrlash shunchaki g‘oya o‘ylab topish bo‘lsa, ijodiy faollik – o‘sha g‘oyalarni hayotga tatbiq etish jarayonidir. Ijodiy qobiliyat – bu insonda yangi g‘oyalarni o‘ylab topish, muammolarga kutilmagan yechimlar topish va o‘ziga xos mahsulotlar yaratish imkonini beruvchi shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. U tug‘ma iste’dod va orttirilgan ko‘nikmalar asosida shakllanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faollikka yo‘naltirish mazmuni – bu talabaning darsdan tashqari vaqtda o‘z qiziqishlari bo‘yicha mustaqil izlanishi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishi va nostandart g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishini ta’minlovchi pedagogik-psixologik tizimdir. Zamonaviy pedagogika ilm-fanida ushbu jarayonning mazmuni muayyan tarkibiy qismlar (komponentlar) va mezonlar tizimi orqali asoslanadi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. To‘garak mashg‘ulotlari auditoriya darslaridan farqli o‘laroq, erkin muhit, o‘zaro hamkorlik va amaliy faoliyatga asoslangani sababli talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida oliy ta’limda fan to‘garaklarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy ta’minlanganligi, talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning bugungi kundagi holati hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha o‘rganildi. Talabalarning to‘garak mashg‘ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlari rivojlanib boradi hamda o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishi kun sayin ortib boradi. Talabalar to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali aniq va real muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xusanova, Feruza Zoxidjonovna. Talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish texnologiyalari (filologiya yo‘nalishi talabalari misolida): avtoreferat. Chirchiq, 2024-y.
2. Torrance, E. P. Creativity and Style of Learning and Thinking: Characteristics of Adaptors and Innovators. 1980.
3. Xusanova, Feruza Zoxidjonovna. Talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish texnologiyalari (filologiya yo‘nalishi talabalari misolida): avtoreferat. Chirchiq, 2024-y.
4. Islamova, R. Talabalar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: avtoreferat. Toshkent, 2026-y.
5. Yuldashev, M. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Ahatova, D. “To‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar bilimini rivojlantirish yo‘llari”. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-y.
7. Saidova, D. (2022). “Boshlang‘ich sinflarda ‘Yosh tabiatshunos’ to‘garagini tashkil etishning ilmiy-amaliy ahamiyati”. Pedagogs jurnali.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №5(4)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.